

**XORAZMSHOXLAR DAVLATINING BOSHQARUV TIZIMI.**

*Termiz davlat pedagogika instituti*

*tarix ta'lim yo'nalishi 4 kurs*

**TALABASI TAGANDURDIYEVA SHASENEM**

*Annotasiya: Ushbu maqolada Xorazmshohlar davlati boshqaruv tizimi, dargoh va devonlar, mavjud davlat lavozimlari, ularning bajargan ishlarini Anushteginiylar sulolasi haqida malumot berilgan.*

*Kalit so'zlar: Anushteginiylar sulolasi, dargoh, mustavfiy, mushrif, ustozdor, Anushtegin, Sulton Malik, vazir, nozir muhlari, hojib.*

Xorazmshoh anushteginiylar davlati tarixini o'rganishda bir qator manbalar mavjud.

1. Ibn al-Asirning "Al-komil fi-t-tarix" (<<mufassal tarixi>>)
2. Rashiddin Fayzulloh Hamadoniyning "Jome ut-tavorix" (tarixlar majmuasi)
3. Shihobiddin Muhammad Nasaviyning "Siyrat us-sulton jaloliddin mankburni"
4. Hamidulloh Qazviniyning "Tarixi guzida"

.Abul Fidoning "muktasar tarix al-bashar"

6. Sharofuddin Abdulloh Vassofning "Tarixi Vassof"

7. Minhajiddin Juzjoniyning "Taboqati Nosiriy"

8. Alouddin Otamalik Juvayniyning "Tarixi Jahonkushoy"-Alouddin Otamalik Juvayniy Mo'g'uliston, Turon hamda Eronning XIII asrning ijtimoiy-siyosiy tarixidan hikoya qiluvchi asari bilan shuhrat topgan. Kitob 1260-yili yozib tamomlangan.

"Tarixi Jahonkushoy" asari 3 qismdan iborat:

1. Mo'g'ullar, ularning Chingizxon davridagi istilochilik yurishlaridan to Guyukxon (1246-1249) davrigacha, shuningdek Jo'chixon, Chig'atoyxon va avlodlari tarixi.

2.Xorazmshohlar va Xurosonning mo'g'ul hukmdorlari davridagi tarixi(1258-yilgacha)

3.Eronning 1256-1258-yillardagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli.

O'rta Osiyo Tarixi uchun "Tarixi Jahonkushoy"ning I-II qismlari alohida ahamiyatga ega.Asarning Xorazm va Xorazmshohlar tarixiga oid qismi (II qism) bizgacha yetib kelmagan "mashorib at-tajorib va g'avorib al-g'aroib"(IMTIHONNI salqinlashtirish joyi va ajoyib narsalarning yuqori darajasi),fahridin roziyning "Jome' ul-ulum"(ilmlar majmuasi)kitoblari asosida yozilgan.Xorazmshoh-anushteginiylar davlati tarixi XX asr tarixshunosligida ham chuqur o'rganilganligini ta'kidlash lozim. **Rus olimlaridan** V.V.Bartold, S.P.Tolstov, A.Ya.Yakubovskiy,s.volin va boshqalar tomonidan organilgan. Xorazmshohlar davlati xususidagi fundamental asar bu ozarbayjonlik sharqshunos olim z.bunyodov"anushtagin xorazmshohlar davlati"kitobi hisoblanadi.usshbu asar 1998-yilda tarjima qilinadi.azamat ziyoning 2001-yilda chop etilgan "o'zbek davlatchiligi tarixi"asarni alohida ta'kidlash joiz.Olimlar:K.Bosvort,Ibrohim Qafas o'g'li, J.A.Boyl, B.K.Valker, R.Krausset, D.Martin, R.Maxapandita, E.Knoblich, O.Tonariy,

G.Brokgelm,B.Shpuler,A,Xartmann,F.Daftariy,J.Kolbas,D.Siyoqiy,D.Timoxin va boshqalar asarlari maqsadga muvofiq. Xorazm vohasida hukmronlik qilgan mahalliy sulolalar qadimdan xorazmshohlar umumiy nomi bilan yuritib kelinganlar.masalan,iii-x asrlarda afrig'iylar,995-1017-yillarda ma'mumiylar,1017-1041-yillarda oltindoshiylar sulolalari xorazmshohlar unvoni bilan boshqaruv kursisida o'tirganlar.xorazmshoh-anushteginiylar sulolasining asoschisi anushtegin tarixchilardan rashiddin,hofizi abroning abrolarning yozishlariga qaraganda o'g'uzlarning turkiy bekdilli urug'iga mansub bo'lib,yoshligida qul qilib sotilgan. Uni saljuqiy harbiy amirlaridan izziddin o'nar bilgitegin sotib olgan. Ushbu amir qul bolani saljuqiy sultonga taqdim qiladi.sulton jaloliddin malikshoh i (1072-1092)davrida saroyda ishonchli kishilar safidan joy olib,tez orada tashtdorlik(hukmdor hammomiga mas'ul) mansabini egallagan.eng ishonchli

kishilarga taqdim etiluvchi ushbu mansab egasi tez orada sultonning eng yaqin kishilaridan biriga aylanadi. Keyinchalik u <<xorazm mutasarrufi>> mansabiga tayinlanib, unga xorazm shixnasi (qal'a boshligi) unvoni beriladi. Saljuqiy Sulton Rukniddin Berkiyoriq (1094-1104) davrida Xuroson hokimi bo'lgan Dodbek Habashiy ibn Otuntosh (vafoti. 1097-yili) Anushteginning xizmatlarini inobatga olgan. Uning o'g'li Qutbiddin Muhammadni Xorazm hokimi etib tayinlab, unga "Xorazmshoh" unvonini beradi. Aynan shu yildan sulola tarixi ham boshlanadi. Qutbiddin Muhammad (1097-1127) Saljuqiylarning hokimiyat uchun kurashlarida faol qatnashgan. Jumladan, 1100-yili Sulton Jaloliddin Malikshoh I ning o'g'li sanjar tomonidan xuroson hududlarini egallashda, unga qarshi isyonni bostirishda ishtirok etdi. Shuningdek, u 1158-yili Sanjar tomonidan turib, uni sultonlik taxtiga o'tirishga munosib hissasini qo'shdi. Diplomatik mahorat qobiliyatiga ega bo'lgan Xorazmshoh Qutbiddin Muhammad turli nizolarni bartaraf etishda ham faol ishtirok etar edi. Xususan, Saljuqiylar Sultoni Sulton Sanjarning (1118-1157) Samarqanddagi Qoraxoniylar xoni Arslonxonga (1102-1130) qarshi harakatida Qutbiddin Muhammad vositachiligida ushbu nizo tinch yo'l bilan hal etildi. Al-Malik Abu Muzaffar Alouddin Jaloliddin Otsizga (1127-1156) topshiradi. Otsiz nomi qadimgi turkiylar orasida keng tarqalgan ismlardan bo'lgan. Tarixiy manbalarda, jumladan VIII asrga oid uyg'ur manbalarida shunday nomga ega shaxslar uchraydi. Shuningdek, saljuqiy sulton Alp Arslonning xorazmlik Otsiz ibn Uvak ismli sarkardasi ham mavjud bo'lgan. Ibn Xalliconning yozishicha, <<otsiz>> ismining asosi <<ot>>-<<ism>> so'zi bilan bog'lik bo'lib, <<agarda turklar xonadonida tug'ilgan barcha farzandlari vafot etaversa, keyingi tug'ilgan chaqaloqqa Otsiz ismini qo'yishgan, bundan maqsad bolani zararli ruhlardan himoya qilish sanalgan. Otsiz mustaqil hukmdorlik ramzi sifatida 1141-yildan o'z nomi ostida oltin tangalar zab etib boshladi. Otsiz vafotidan keyin bo'lgan hokimiyat uchun sa'y-harakatlarda uning katta o'g'li Alp Arslonning qo'li baland keldi (1156-1172). Alp Arslon 1156-yilning 22-avgust kuni taxtiga o'tirdi. Taxtga o'tirgan yangi hukmdor o'z otasining siyosatini davom ettirishga harakat qildi. Shu bois janub-xuroson hududiga katta e'tibor bergan. 1172-yilning 17-

mart kuni vafot qildi. Alouddin Takash (1172-1200) taxtga o'tirdi. Xorazmshohlar davlatida o'ziga xos diarxiya-ya'ni ikkihokimlik tizimi yuzaga keldi. Garchi Muhammad Xorazmshoh mutlaq hukmdor, qudratli davlat egasi hisoblansa-da aslida esa o'z onasi turkon xotun izmiga bo'sunardi. Ko'p holda sulton farmonlari onasi tomonidan bekor qilinar edi. Sulton onasiga hech qachon qarshi chiqmas va bu holatni tarixchi nasaviy quyidagicha izohlab, uni ikki sababga bog'lab ko'rsatgan edi. << Birinchidan, onasining unga bo'lgan mehrini qadrlashi, ikkinchidan, mamlakatning barcha amirlari onasining urug'idan ekanligidir >>. Turkon Xotun << jahon hokimi >> degan laqabga ega bo'lib, uning shaxsiy muhri (tug'ro) da: << Ismat ud-Dunyo vad-din ulug' turkon malika niso al-olamiyn >> degan bitik yozilgan edi. Xorazmshohlar davlati boshqaruv tartibida an'anaviy dargoh va devon tizimiga rioya qilinar edi. Xorazmshohlar davlatida markaziy boshqaruv idorasi << al-majlis ul-oliy al-faxri at-toji >> deb nomlangan bo'lib, uni vazir boshqargan. Vazir-mamlakatda sultondan keyingi eng yuqori mansabdor shaxs bo'lgan. Tarixiy manbalarda Xorazmshohlar saroyida turli mansab, lavozimlar haqida ham ma'lumotlar berilgan. "Amir shikor"-sulton ovlarini tashkil etgan. Amir ul-a'lam (a'lamdor)-sulton bayroqdori

Qissador-hafta davomida sulton nomiga yozilgan ariza va iltimoslarini yig'ib, payshanbadan jumaga o'tar kechasi sultonga topshirardi. U obro'li mansabdorlardan biri bo'lgan. Tashtdor-sulton hammomlari va hovuzlarning boshligi. Farrosh-sulton o'rni-to'shak saqlanadigan farroshxona boshlig'i. **Choshnigir**-dasturxon yozilgan vaqtida sulton taomlari xavfsizligi uchun javob berardi. **Sharopdor**-sulton sharobxonasining boshligi. **istifo devoni**-moliya ishlari bilan, **Ishrof Devoni**-davlat nazorati tadbirlari bilan **Devoni Arz**-harbiy masalalar, qurol-aslaha bilan ta'minlash, shaxsiy tarkibni nazorat qilish, harbiy ko'riklar o'tkazish, harbiylarga ajratilgan mulklar nazorati kabilar bilan shug'ullangan. Xorazmshohlar davlatida qo'shin boshqaruvining eng oliy organi **Devoni al-ard** yoki **Devon-Jaysh** deb atalgan. Bu devon boshlig'i **Sohibi Devon al-ard**, **Sohibi Devon al-Jaysh**, **Oriz Al-Jaysh** nomlari bilan atalgan. Devon Al-Ard butun harbiy iqtolar tasarrufi, jangchilarga beriladigan har qanday maosh va

to'lanmalarning qaydini olib borgan va nazorat qilgan. Xorazmshohlarning harbiy tashkiloti ham, asos e'tibori bilan xuddi saroy va hukumat tashkiloti singari saljuqiylarnikiga o'xshashdir<sup>14</sup>. Ayni zamonda armiya qo'mondonlarining rutbalarida Alouddin Muhammad davridan boshlab, bir qancha o'zgartirishlar qilingan. Jaloliddin Xorazmshoh davrida ham sulton Alouddin Muhammad vaqtiga nisbatan armiyani tashkil etgan unsurlarga qator o'zgartirishlar kiritilgan. Xorazmshohlar davrida qo'shinga oid boshqaruv ishlari bilan buyuk devonning bo'limi devoni arz shug'ullangan. Davlat xazinasidan olingan mablag'lar va ularning sarfi to'g'risidagi barcha yozuvlar shu devonda saqlangan. Xorazmshohlar davrida ham iqto tizimi bor edi<sup>15</sup>. Qo'shinda xizmat qilgan harbiylarning hammasi ma'lum qiymatdagi iqtolarga ega bo'lishgan. Xususan, katta-kichik sarkardalar, qo'mondonlar va harbiy voliylarning boy iqtolari bor edi. Katta iqtolar hukmdorning marhamatiga muvofiq, kamayishi yoki yanada yiriklashishi mumkin edi. Saljuqiylarga qaram yashashdan qutilish uchun olib borilgan kurashning dastlabki paytlaridan to o'z davlatining inqiroziga qadar Xorazm shohlari qurol-aslaha bilan ta'minlash va ularning sonini to'ldirib turish, shohlarning eng katta tashvishi bo'lib kelgan. Xorazm shohlari armiyasi yaxshi o'qigan, har xil qurollar bilan qurollangan, uning qo'mondonlari janglarda bir necha bor jasorat va tadbirkorlik ko'rsatgan. Manbadan olingan ma'lumotlarga ko'ra, Xorazm shohlari o'z davlatida majburiy umumxalq harbiy ta'lim tizimini joriy qilgan. Zakariya al-Qazviniy davlat poytaxti Gurganj shahri haqida bunday deb yozadi: «Juda ko'p aholiga ega bo'lgan bu ulkan shaharning barcha aholisi askarlardir, hatto baqqol, qassob, nonvoy va bo'zchilari ham askarlardir. Aytishlaricha, qoraxitoylar bilan bo'lgan janglarning birida sulton Muhammad ibn Takash yengilib, shaharda bekinib olgan. Sulton uncha ko'p bo'lmagan odamlari bilan qochgan. Iqto sohiblaridan tashkil topgan ulkan bir suvoriy quvvatlar Xorazmshohlar mamlakatining turli tomonlariga yerlashgandi. Ular viloyat askarlarini tashkil etardi. Bundan tashqari, hukmdorning gvardiya<sup>16</sup>si ham mavjud edi. Gvardiya ichidan tanlab olingan «xosa g'ulomon» deb atalgan qismga esa sulton xavfsizligi va hayotini saqlash vazifasi yuklatilgan edi. Urush, jang vaqtlarida bu qism sulton atrofida bo'lardi.

Xorazmshohlar davrida viloyat markazlarida yetarli miqdorda harbiy qismlar turgan. Bundan tashqari, mamlakatning chegara qismlari, yo'llar va mudofaa ahamiyatiga molik, yaroqli qal'alarda mudofaa qismlari bor edi. Voliylar va qal'a qo'mondonlari, asosan, asli turkiy bo'lgan saroy xizmatchilaridan tayinlangan. Keyingi davrda esa ular yirik urug' beklari orasidan tanlanadigan bo'lgan. Bu badavlat va nufuzli shaxslarning qo'li ostida bevosita ularga bo'ysunadigan va aksariyat hollarda qullardan tarkib topgan xususiy harbiy qismlar ham bor edi. Jaloliddin Xorazmshoh qo'shin qo'mondonlariga yuksak unvonlar berdi. Ular quyidagilardan iborat: Nozir al-jaysh (harbiy nozir) - Xorazmshohlar qo'shinidagi ikkinchi lavozim bo'lib, u harbiy devonxona boshlig'ining nazorati ostida faoliyat ko'rsatar edi. Ariz yoki devon al-jaysh - qo'shinlar shtabining boshlig'i. Jamaqdor –sulton devon al-xossining xizmatchilaridan biri. Sultonning shaxsiy mamlugi yoki shaxsiy qo'shin lashkar. Josusiya–maxsus xufiya va ayg'oqchilar bo'linmalari mavjud bo'lib, josuslar «dushmanning hol-ahvolidan xabardor bo'lib turar, ularning harakatini kuzatib borar, bu o'ta muhim ish edi. Mustaxfiz –qal'alardagi gornizonlar qo'mondoni. Jondor–saroy mansabi, sultonning soqchisi. Silohdor–Xorazmshohqo'shini devonidagi qurol-yarog' saqlanadigan bo'linmaning boshlig'i. Sarhang –500 lashkarga bosh bo'lgan lashkarboshi. Qo'shinqozisi (qoziy hasham va lashkariy hazrat yoki qozi alasokir) –Xorazmshohlar armiyasida bosh diniy hakam. Xorazmshohlar qo'shinida ham saljuqiylardagi singari qo'shin qozisi bo'lgan. Ular qo'shin ichidagi diniy-huquqiy ziddiyatlarga barham berganlar<sup>125</sup>. Qo'shin soni –Xorazm shohlarining harbiy yurishlarining ko'lamiga qarab o'zgarib borgan. O'rta Osiyoga mo'g'ullarning bostirib kirishi arafasida Xorazmshohlar davlatining qo'shinlari taqriban, Turkiston va Movarounnahrda 400 ming otliq, O'trorda 20 ming, Binoket viloyatida 10 ming va Samarqandda 110 ming kishiga yetgan edi. Undan tashqari, qo'shinlarning anchagina qismi Sujiston, Balx, Jand, Huttalon, Qunduz va Yorkentda edi. Hatto, davlat inqirozga yuz tutgan davr Xorazm shohi Jaloliddin Manguberdi davrida ham, Hindistonda 90 ming suvoriy, Kavkaz yerlariga hujum qilgan paytlarda 200 ming suvoriy, Isfaxon atrofida mo'g'ullar bilan olib borilgan janglarda esa otliq va piyoda bo'lib, 100 ming askar bo'lgan.

Urush boshlanishidan avval yoki urush e'lon qilingan vaqtda Xorazm shohlari harbiy kengash chaqirar va oldinda turgan vazifalar muhokama qilinardi. Kengashda jangda qo'llaniladigan taktika to'g'risida bir qarorga kelinardi. Kengashga yirik harbiy arboblari, xonlar, maliklar, amirlar, ulamolar, faqihlar va munajjimlar taklif qilinardi. Ammo bu kengashlar noto'g'ri bo'lsa, Shoh shaxsan o'zi qabul qilgan qarorni ma'qullash bilan yakunlanardi. Mo'g'ullarga qarshi yurish masalasida Alouddin Muhammadning harbiy kengashi va undagi mujodalalar haqida manbalarda ma'lumot mavjud. Biroq kengashning qarorlari ba'zan munajjimlarning bashorati bilan o'zgarishi mumkin edi. Xulosa qilib aytish mumkinki, XII asr oxiri va XIII asr boshlarida Xorazm saljuqiylar hukmronligidan qutulib, mustaqil va qudratli davlat sifatida 140 yil davomida, ya'ni mo'g'ullar istilosiga qadar gullab-yashnagan edi. Shu davrlarda (1097-1331) hukmronlik qilgan Anushtagin avlodi bo'lgan Xorazmshohlarni V.V.Bartold «Eng porloq sulola» deb atagan edi. Anushtaginiylar davrida davlat mansablari ma'muriy, diniy va harbiy lavozimlarga bo'linardi. Bu vazifalarni bajaruvchilarga davlat tomonidan tegishli maosh va mukofotlar berilgan. Xorazmshohlar davlatida Buyuk Devon hukumat idorasining eng oliy organi bo'lgan. Davlatda moliya –solliq, harbiy va boshqa mahkamalar juda muntazam amal qilardilar. Vazir, sohibi devon (vazirdan keyingi oliy mansab) mansablari bo'lgan. Xorazmshohlar davlatining adliya tashkiloti ilk davrlaridan boshlab mukammal va muntazam bir mexanizmga ega bo'lgan. Adolat tashkiloti butun o'rta asr turkiy islom davlatlarida bo'lgani singari, shariat sudi va urf-odatga ko'ra hukm chiqarishga asoslangan edi. Xalq orasidagi doimiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolar va da'volar shariat sudlarida ko'rilgan. Qozihokim degan ma'noni anglatadi. Qadimiy turkiy qonunlardan «Majallai ahkami adliya»da «Hokim sodir bo'lgan da'vo va dushmanlik ahkomi mashruasiga ko'ra, ularni hal etish uchun sulton tomonidan tayin etilgan zotdir» deb ta'rif etilgan. Qozi o'zi hukmdor bo'lgan viloyatga fiqhda «viloyati qozon» deyilgan. Bu ma'noda qozi umumiy siyosatdan tashqarida turgan. Xususan, ijro salohiyati bo'lmagan, so'zini ijro quvvati bilan bajo keltira olmaydigan qozilarning omma bilan aloqador masalalar to'g'risida hukm chiqarishi

to'g'ri bo'lmas edi. Qozining kuchi uning hukm chiqarish qudratidir. Ijro qudrati bu doiraga kirmaydi. Xorazmshohlar davlatining harbiy tashkiloti saroy va hukumat tashkiloti singari bo'lgan. Qo'shinga oid boshqaruv ishlarini Buyuk devonning bo'limi devoni arz shug'ullangan. Hukmdorning gvardiyasi ham mavjud bo'lgan. U armiyaning bosh qo'mondoni edi. Xorazmshohlar davlatida viloyat markazlarida yetarli miqdorda harbiy qismlar turgan. Shuningdek, mamlakatning chegara qismlari, yo'llar va mudofaa ahamiyatiga molik qal'alarda mudofaa qismlari bo'lgan. Abbosiylar xalifaligiga muvaffaqiyatsiz yurishdan so'ng, 1218 yili Muhammad Xorazmshoh o'zining yangi poytaxti deb e'lon qilgan Samarqand shahriga kirib keldi va xutba, tangalardan esa xalifa nomini chiqarib tashlash xususida farmon berdi. O'sha yili Muhammad Xorazmshoh Chingizxon huzuriga yana o'z elchilarini yuboradi. Bunga javoban Chingizxon kechiktirmasdan qimmatbaho sovg'alar va mollar ortilgan katta karvon bilan o'z elchilarini xorazmshohlar sultoni huzuriga yuboradi. Sultonga mo'ljallangan qimmatbaho sovg'alar ichida Chingizxon o'lja olgan tuya o'rkachidek keluvchi oltin bo'lgi ham bor edi. Elchilarga xorazmlik taniqli savdogar Mahmud Yalavoch (Mahmud al - Aromiy) rahbar etib tayinlanib, yana 2 ta odam, buxorolik savdogar Alixo'ja va o'trorlik Yusuf qanqalar elchilik rutbasiga ega edilar. Sulton Muhammad bu elchilarni 1218-yil bahorida Buxoro shahrida qabul qiladi. Elchilar Chingizxon sultonning zafarli yurishlaridan xabardor ekanliklari, uni qudratli podshoh sifatida tan olib - o'zining eng ardoqli o'g'illari qatorida ko'rishini bayon etishadi. Chingizxon o'z nomasida kuch-qudrati zafarini ko'rsatish ma'nosida Xitoy va qo'shni mamlakatlarni qanday kuch bilan egallaganligini ham aytib o'tadi. Elchilar nomasi shubhasiz sultonga ma'qul bo'lmaydi. Ayniqsa, mo'g'ul davlatining xonini, uni o'zining -o'g'li qatorida ko'rish, bu sharq ustamonligida qaram qilish yoki o'z homiyiligini olish degan ma'noni anglatishni sulton yaxshi tushunadi. Elchilarga sulton javobi ma'lum emas, lekin o'sha tunda u o'z yoniga Mahmud Yalavochni chorlab bor haqiqatni bayon etishni, uning xizmatiga o'tib, maxfiy josus bo'lib xizmat qilishni buyuradi. O'z hayotidan xavfsiragan Mahmud Yalavoch, muarrix an- Nasaviyning yozishicha, -sulton eshitishni xohlagan ma'lumotni aytib, sulton



taklifiga ko'radi. Xorazmshoh unga qimmatbaho javohir sovg'a qilib, Chingizxon bilan shartnoma tuzishga rozi ekanligini bildiradi. Chingizxon Mahmud Yalavoch guruhi xizmatidan, to'plangan ma'lumotlardan mamnun bo'ladi. Zero Yalavoch soxta -josus rolini o'ynab, bor haqiqatni Chingizxonga yetkazgan edi.